

27-iyun - Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni

// 28.06.2024

<https://uzkimiyosanoat.uz/oz/press/news/27-iyun-matbuot-va-ommaviy-axborot-vositalari-xodimlari-kuni>



Hurmatli ommaviy axborot vositalari xodimlari!

Davlatimiz rahbari ta'kidlaganlaridek, bugungi kunda matbuot ishi, jurnalistlar faoliyati nafaqat "to'rtinchi hokimiyat", balki mudofaa, xavfsizlik kabi hal qiluvchi sohaga aylanib bormoqda.

Bunday o'ta mas'uliyatli va sharafli yo'lda siz kabi jasur va dovyurak, kasbini chin dildan sevadigan va fidoyi mutaxassislarning faoliyati jamiyatimizda har doim dolzarb va muhim bo'lib qoladi. Sizlarning haqiqat va adolat yo'lida qilayotgan mehnatingiz yuksak e'tiroflarga munosib. Jumladan, yurtimiz kimyo sanoatida olib borilayotgan jadal islohotlarni tezkor, xolis va haqiqiy yoritib borayotganingizdan minnatdormiz.

Aziz jurnalistlar va matbuot sohasi xodimlari, kasb bayramingiz muborak! Qalamingiz o'tkir bo'lsin, ovozingiz baland yangrasin! Xalqimiz va yurtimizga xizmat qilishdan aslo tolming!

Hurmat bilan,

"O'zkiyosanoat" AJ jamoasi